2026-yil
9(1)-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

UDK 316.6:314.7:159.9

Yuldasheva Shaxnoza Ulug'bekovna,
ISFT instituti mustaqil izlanuvchisi

XOTIN-QIZLARDA REKREATSION MIGRATSIYA MOTIVINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK KORRELYATLARI

Annotatsiya. Maqolada xotin-qizlarda rekreatsion migratsiya motivining ijtimoiy-psixologik omillari korrelyatsion tahlil qilingan. Natijalarda emotsional-regenerativ va kognitiv-rivojlantiruvchi motivlarning psixologik himoya mexanizmlari bilan aloqadorligi aniqlangan. Siqib chiqarish, rad etish va kompensatsiya emotsional tiklanish ehtiyoji bilan ijobiy, bostirish va ratsionalizatsiya esa kognitiv-rivojlantiruvchi omillar bilan salbiy bog'liqlikni namoyon etgan.

Kalit so'zlar: rekreatsion migratsiya, xotin-qizlar, migratsiya motivi, emotsional-regenerativ omil, kognitiv-rivojlantiruvchi omil, psixologik himoya, kompensatsiya, ratsionalizatsiya.

КОРРЕЛЯТЫ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ МОТИВА РЕКРЕАЦИОННОЙ МИГРАЦИИ У ЖЕНЩИН

Аннотация. В статье представлен корреляционный анализ социально-психологических факторов мотива рекреационной миграции у женщин. Выявлена взаимосвязь эмоционально-регенеративных и когнитивно-развивающих мотивов с механизмами психологической защиты. Вытеснение, отрицание и компенсация положительно связаны с потребностью в эмоциональном восстановлении, тогда как подавление и рационализация отрицательно коррелируют с когнитивно-развивающими факторами.

Ключевые слова: рекреационная миграция, женщины, миграционный мотив, эмоциональное восстановление, когнитивное развитие, психологическая защита, компенсация, рационализация.

CORRELATES OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF RECREATIONAL MIGRATION MOTIVATION AMONG WOMEN

Abstract. The article presents a correlational analysis of socio-psychological factors associated with recreational migration motivation among women. The findings reveal relationships between emotional-regenerative and cognitive-developmental motives and psychological defense mechanisms. Repression, denial, and compensation were positively associated with emotional recovery needs,

whereas suppression and rationalization showed negative associations with cognitive-developmental factors.

Keywords: recreational migration, women, migration motivation, emotional recovery, cognitive development, psychological defense mechanisms, compensation, rationalization.

Kirish. Jahonning yetakchi ilmiy markazlari va tadqiqot institutlarida rekreatsion migratsiyaning shaxs ruhiy salomatligi, emotsional farovonligi, hayot sifati hamda ijtimoiy moslashuv jarayonlariga ta'sirini o'rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar ko'lami kengayib bormoqda. Ayniqsa, xotin-qizlarda rekreatsion migratsiya motivlarining shakllanish mexanizmlari, emotsional tiklanish ehtiyojlari, yangi taassurotlarga intilish, ijtimoiy aloqalarni kengaytirish va shaxsiy rivojlanish omillarining o'zaro bog'liqligini tadqiq etish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda rekreatsion safarlarning stressni kamaytirish, psixologik resurslarni tiklash, emotsional barqarorlikni mustahkamlash hamda shaxsning psixologik farovonligini oshirishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda [1].

Metodologiya. Tadqiqotning nazariy-metodologik negizini shaxs faolligi va motivatsiyasining psixologik konsepsiyalari (A.Maslow, C.Rogers, G.Allport, H.Murray), faoliyatning psixologik nazariyasi (A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn), ijtimoiy kognitiv yondashuv (A.Bandura), maydon nazariyasi (K.Levin), rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasi (I.Ajzen), o'zini o'zi determinatsiyalash nazariyasi (E.Deci, R.Ryan), psixologik farovonlik konsepsiyasi (C.Ryff), hayot sifati va subyektiv farovonlik nazariyalari (E.Diener) hamda migratsiya va mobillikning zamonaviy sotsiopsixologik yondashuvlari tashkil etadi [2].

Tadqiqotda K.Levinning maydon nazariyasiga alohida metodologik ahamiyat berildi. Mazkur nazariyaga ko'ra, inson xulq-atvori shaxsiy ehtiyojlar va tashqi muhit omillarining o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Rekreatsion migratsiya motivlari ham xotin-qizlarning individual ehtiyojlari, emotsional holati, qadriyatlari hamda ularni o'rab turgan ijtimoiy-madaniy muhit ta'siri ostida shakllanuvchi murakkab psixologik hodisa sifatida izohlanadi [3].

A.Maslowning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi rekreatsion migratsiya motivlarining mazmunini tushuntirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, rekreatsion migratsiya insonning dam olish, xavfsizlik, ijtimoiy mansublik, hurmat va o'zini o'zi ro'yobga chiqarish ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyat turi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan rekreatsion migratsiya xotin-qizlarning yuqori darajadagi psixologik ehtiyojlarini amalga oshirish vositasi sifatida qaraladi [4].

E.Deci va R.Ryanning o'zini o'zi determinatsiyalash nazariyasi asosida rekreatsion migratsiya motivlari avtonomlik, kompetentlik va ijtimoiy bog'liqlik ehtiyojlari bilan izohlanadi. Mazkur nazariya xotin-qizlarning rekreatsion qarorlar

qabul qilishida ichki motivatsiya va shaxsiy tanlov omillarining ustuvorligini tushuntirish imkonini beradi [5].

A.Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasiga ko‘ra, inson xulq-atvori kuzatish, ijtimoiy tajriba va o‘z-o‘zini baholash jarayonlari orqali shakllanadi. Shu sababli rekreatsion migratsiya motivlarining yuzaga kelishida ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari, referent guruhlar hamda ijtimoiy taqqoslash mexanizmlarining ta’siri muhim metodologik omil sifatida qaraladi [6].

Tadqiqot metodologiyasida psixologik farovonlik konsepsiyasi markaziy o‘rin egallaydi. C.Ryff tomonidan ishlab chiqilgan psixologik farovonlik modeli asosida rekreatsion migratsiya motivlari avtonomlik, shaxsiy o‘sish, hayot maqsadlari, o‘zini qabul qilish, ijtimoiy munosabatlar va muhitni boshqarish kabi psixologik komponentlar bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqotda tizimli yondashuv tamoyillaridan foydalanildi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, rekreatsion migratsiya motivlari biologik, psixologik, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy omillarning o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida o‘rganiladi. Bu esa rekreatsion migratsiya fenomenining ko‘p darajali va ko‘p omilli tabiatini kompleks tahlil qilish imkonini beradi [7].

Tadqiqot natijasi. Hayot maromi indeksi hamda rekreatsion psixosotsial omillar o‘rtasidagi korrelyatsion aloqadorlik tahlili xotin-qizlarda rekreatsion migratsiya motivlari psixologik himoya mexanizmlari bilan turlicha bog‘langanligini ko‘rsatdi. Olingan empirik natijalarga ko‘ra, emotsional-regenerativ omillar ayrim himoya mexanizmlari bilan kuchli ijobiy aloqadorlikka ega bo‘lsa, kognitiv-rivojlantiruvchi omillar o‘rtacha ijobiy hamda ayrim hollarda salbiy aloqadorlikni namoyon etdi. Ijtimoiy-integrativ va status-prestij omillar bilan esa ko‘pchilik himoya mexanizmlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik aniqlanmadi.

1-jadval

Hayot maromi indeksi hamda rekreatsion psixosotsial omillar o‘zaro aloqadorligi (n=328)

Aloqadorlik shkalalari	Emotsional-regenerativ omillar	Kognitiv-rivojlantiruvchi omillar
Siqib chiqarish	**0,665****	**0,342****
Regressiya	-0,126	-0,082
Bostirish	-0,040	**-0,246***
Rad etish	**0,665****	**0,342****
Proyeksiya	-0,126	-0,082
Kompensatsiya	**0,665****	**0,342****
Giperkompensatsiya	-0,126	-0,082
Ratsionalizatsiya	-0,040	**-0,246***

*Izoh: *- p<0.05, **- p<0.01*

Siqib chiqarish mexanizmi emotsional-regenerativ omillar bilan kuchli ijobiy aloqadorlikni namoyon etdi. Bu holat xotin-qizlarda ruhiy charchoq, ichki zo‘riqish va salbiy emotsional kechinmalar kuchaygan sari rekreatsion migratsiyaga bo‘lgan emotsional-tiklovchi ehtiyoj ham ortishini ko‘rsatadi. Siqib chiqarish mexanizmi orqali shaxs ongida noqulay kechinmalar vaqtincha chetlashtiriladi, biroq ularning psixologik bosimi rekreatsion safar, muhitni o‘zgartirish va ruhiy yengillik izlash motivini faollashtiradi. Mazkur mexanizm kognitiv-rivojlantiruvchi omillar bilan ham ijobiy aloqadorlikka ega bo‘lib, bu ichki zo‘riqishlarni yangi bilim, yangi taassurot va muhitni o‘zgartirish orqali yumshatishga intilish mavjudligini bildiradi. Ijtimoiy-integrativ va status-prestij omillar bilan aloqadorlik ahamiyatli emasligi siqib chiqarish ko‘proq ichki tiklanish va shaxsiy tajriba bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi ($r=0,665$; $p<0,01$).

Bostirish mexanizmi kognitiv-rivojlantiruvchi omillar bilan salbiy aloqadorlikni namoyon etdi. Bu holat emotsional kechinmalarni ongli ravishda bosib turish kuchaygan sari yangi bilim, yangi tajriba va shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan rekreatsion motivlar susayishini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, o‘z hissiyotlarini ochiq anglash va qayta ishlash imkoniyati cheklangan respondentlarda rekreatsion migratsiyaning kognitiv-rivojlantiruvchi mazmuni kamroq faollashadi. Bu natija rekreatsion migratsiyaning rivojlantiruvchi funksiyasi shaxsning emotsional ochiqligi va refleksiv anglash darajasi bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi ($r=-0,246$; $p<0,05$). Rad etish mexanizmi emotsional-regenerativ omillar bilan kuchli ijobiy aloqadorlikni namoyon etdi. Bu natija xotin-qizlarda mavjud ruhiy charchoq, stress yoki hayotiy qoniqmaslik holatlarini bevosita tan olishdan qochish kuchaygan sari rekreatsion migratsiyaga bo‘lgan tiklovchi ehtiyoj ham ortishini ko‘rsatadi. Rad etish mexanizmi orqali respondent muammoni ongli ravishda tan olmasligi mumkin, biroq ichki psixologik bosim rekreatsion safar, dam olish va muhitni almashtirish istagi orqali namoyon bo‘ladi. Kognitiv-rivojlantiruvchi omillar bilan ijobiy aloqadorlik esa muhitni o‘zgartirish orqali ichki noqulaylikni bilvosita yengillashtirishga intilish mavjudligini bildiradi ($r=0,665$; $p<0,01$).

Kompensatsiya mexanizmi emotsional-regenerativ omillar bilan kuchli ijobiy aloqadorlikka ega bo‘ldi. Bu holat respondentlarda emotsional yetishmovchilik, ruhiy charchoq yoki ichki qoniqmaslik mavjud bo‘lganida rekreatsion migratsiya ushbu kamchiliklarni qoplash, ijobiy taassurotlar olish va ruhiy resurslarni tiklash vositasi sifatida faollashishini ko‘rsatadi. Kognitiv-rivojlantiruvchi omillar bilan ijobiy aloqadorlik esa yangi bilim, madaniy tajriba va shaxsiy rivojlanish orqali ichki yetishmovchiliklarni to‘ldirishga bo‘lgan ehtiyoj mavjudligini anglatadi. Demak, rekreatsion migratsiya kompensator mexanizm sifatida shaxsga psixologik muvozanatni tiklash imkonini beradi ($r=0,665$; $p<0,01$). Ratsionalizatsiya mexanizmi kognitiv-rivojlantiruvchi omillar bilan salbiy aloqadorlikni namoyon etdi. Bu holat rekreatsion migratsiyaga oid qarorlarni haddan tashqari mantiqiy asoslash, safarni faqat “zarur”, “foydali” yoki “oqilona” sabablar bilan izohlash kuchaygan sari uning spontan kognitiv-rivojlantiruvchi motivlari susayishini

ko‘rsatadi. Ya’ni yangi bilim va tajriba olishga qaratilgan rekreatsion ehtiyojlar ortiqcha ratsional nazorat ostida tabiiy faolligini yo‘qotishi mumkin. Shu bois rekreatsion migratsiyaning rivojlantiruvchi mazmuni faqat mantiqiy asoslash emas, balki emotsional ochiqlik va yangilikka tayyorlik bilan ham bog‘liqdir ($r=-0,246$; $p<0,05$). Hayot maromi indeksi va rekreatsion psixosotsial omillar o‘rtasidagi korrelyatsion tahlil rekreatsion migratsiya motivlarining, avvalo, emotsional-regenerativ va kognitiv-rivojlantiruvchi yo‘nalishlar bilan bog‘liq psixologik himoya mexanizmlari orqali shakllanishini ko‘rsatdi. Siqib chiqarish, rad etish va kompensatsiya emotsional tiklanish ehtiyojini kuchaytiruvchi asosiy himoya mexanizmlari sifatida namoyon bo‘ldi. Bostirish va ratsionalizatsiyaning kognitiv-rivojlantiruvchi omillar bilan salbiy aloqadorligi esa rekreatsion migratsiyaning rivojlantiruvchi mazmuni uchun emotsional ochiqlik, refleksiya va yangilikka tayyorlik muhim ekanligini tasdiqladi.

Muhokama. Olingan korrelyatsion natijalar xotin-qizlarda rekreatsion migratsiya motivatsiyasining shakllanishi faqat tashqi dam olish ehtiyoji bilan emas, balki shaxsning ichki emotsional holati va psixologik himoya mexanizmlari bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, siqib chiqarish, rad etish va kompensatsiya mexanizmlarining emotsional-regenerativ omillar bilan kuchli ijobiy aloqadorligi rekreatsion migratsiya ayrim holatlarda psixologik resurslarni qayta tiklashga xizmat qiluvchi adaptiv-kompensator faoliyat sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Siqib chiqarish mexanizmining emotsional-regenerativ omillar bilan yuqori darajadagi ijobiy bog‘liqligi ($r=0,665$; $p<0,01$) ichki zo‘riqish, ruhiy charchoq va salbiy emotsional kechinmalar kuchaygan sharoitda shaxsning muhitni vaqtincha o‘zgartirish, kundalik hayot ritmidan uzoqlashish va emotsional yengillikka erishishga bo‘lgan ehtiyoji faollashishini anglatadi. Bunda rekreatsion safar noqulay kechinmalar sabablarini to‘liq bartaraf etmasa-da, ularning subyektiv psixologik bosimini kamaytirishga xizmat qiluvchi resurs sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Mazkur mexanizmning kognitiv-rivojlantiruvchi motivlar bilan ijobiy bog‘lanishi esa yangi muhit, taassurot va tajriba ichki psixologik tanglikni yumshatish vositalaridan biri sifatida qo‘llanilishini ko‘rsatadi.

Rad etish mexanizmi bo‘yicha aniqlangan tendensiya ham mazkur qonuniyatni to‘ldiradi. Shaxs stress, charchoq yoki hayotiy qoniqmaslikni bevosita tan olmasligi mumkin, biroq ushbu ichki ehtiyoj rekreatsion faoliyatga intilish orqali bilvosita namoyon bo‘ladi. Rad etish va emotsional-regenerativ motivlarning kuchli bog‘liqligi ($r=0,665$; $p<0,01$) rekreatsion migratsiya ba’zan verbalizatsiya qilinmagan yoki yetarli darajada anglanmagan emotsional ehtiyojlarning xulq-atvoriy ifodasi bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, rekreatsion migratsiya faqat hordiq chiqarish shakli emas, balki psixologik muvozanatni bilvosita tiklash usuli sifatida ham talqin qilinishi mumkin.

Kompensatsiya mexanizmining emotsional-regenerativ va kognitiv-rivojlantiruvchi omillar bilan ijobiy aloqasi ham nazariy jihatdan ahamiyatlidir.

Emotsional yetishmovchilik, monoton hayot maromi, subyektiv qoniqmaslik yoki ijobiy taassurotlar tanqisligi rekreatsion safar orqali qoplanishi mumkin. Bunda yangi muhit, ijobiy emotsiyalar, madaniy tajriba va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlari individning psixologik resurslarini to‘ldirishga xizmat qiladi. Demak, kompensatsiya kontekstida rekreatsion migratsiya shaxsning mavjud hayotiy vaziyatida yetarli darajada qondirilmagan emotsional va kognitiv ehtiyojlarini muqobil faoliyat orqali qoplash shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

Boshqa tomondan, bostirish va ratsionalizatsiya mexanizmlarining kognitiv-rivojlantiruvchi omillar bilan salbiy aloqadorligi rekreatsion migratsiyaning rivojlantiruvchi funksiyasi uchun emotsional ochiqlik va refleksiv tayyorlik alohida ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bostirishning kognitiv-rivojlantiruvchi omillar bilan salbiy bog‘liqligi ($r=-0,246$; $p<0,05$) emotsional kechinmalarni doimiy ravishda nazorat ostida ushlab turish yoki ularni ochiq anglashdan cheklanish yangi taassurot, bilim va tajribaga ichki tayyorlikni pasaytirishi mumkinligidan dalolat beradi. Ya’ni rekreatsion faoliyat mavjud bo‘lsa-da, uning shaxsni rivojlantiruvchi psixologik mazmuni nisbatan sust bo‘lishi ehtimoli mavjud.

Ratsionalizatsiya mexanizmi bo‘yicha aniqlangan salbiy bog‘liqlik ($r=-0,246$; $p<0,05$) ham shunga yaqin psixologik mazmunga ega. Rekreatsion safarni haddan tashqari mantiqiy asoslash, uni faqat foydalilik, zarurat yoki ijtimoiy maqbullik mezonlari orqali baholash shaxsning spontan qiziqishi, yangilikka ochiqligi va kognitiv izlanish motivatsiyasini cheklashi mumkin. Bu natija rekreatsion migratsiyaning rivojlantiruvchi salohiyati mantiqiy rejalashtirishning o‘zi bilan emas, balki emotsional qabul qilish, refleksiya, yangilikka ochiqlik va ichki motivatsiya bilan birgalikda shakllanishini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy-integrativ va status-prestij omillari bilan ayrim himoya mexanizmlari o‘rtasida statistik ahamiyatli aloqalarning aniqlanmagani ham muhim natijadir. Bu holat o‘rganilgan respondentlarda rekreatsion migratsiya motivatsiyasi ko‘proq tashqi ijtimoiy maqom, prestij yoki ijtimoiy aloqalarni kengaytirishdan ko‘ra ichki emotsional tiklanish, psixologik kompensatsiya va yangi tajribaga ehtiyoj bilan belgilanayotganini ko‘rsatadi.

Umuman, natijalar psixologik himoya mexanizmlarining rekreatsion migratsiyadagi funksiyasi bir xil emasligini ko‘rsatdi. Siqib chiqarish, rad etish va kompensatsiya ichki emotsional zo‘riqishni rekreatsion faollik orqali yumshatishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, bostirish va ratsionalizatsiya shaxsning rekreatsion faoliyatdan kognitiv-rivojlantiruvchi resurs sifatida foydalanish imkoniyatlarini ma’lum darajada cheklashi mumkin. Shunday qilib, rekreatsion migratsiya xotin-qizlarning psixologik holatini tartibga soluvchi, ruhiy resurslarni qayta tiklovchi va ayrim hollarda kompensator-adaptiv vazifani bajaruvchi murakkab psixosotsial fenomen sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Xotin-qizlarda rekreatsion migratsiyaga yo‘nalganlikning muhim psixologik asoslari, avvalo, emotsional-regenerativ hamda kognitiv-rivojlantiruvchi ehtiyojlar bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi. Olingan korrelyatsion natijalar

rekreatsion migratsiya motivatsiyasi faqat hordiq chiqarish yoki tashqi muhitni o‘zgartirish istagi bilan belgilanmasligini, balki shaxsning ichki emotsional holati, psixologik ehtiyojlari va himoya mexanizmlari bilan ham uzviy aloqadorligini ko‘rsatdi.

Siqib chiqarish, rad etish va kompensatsiya mexanizmlarining emotsional-regenerativ omillar bilan kuchli ijobiy aloqadorligi rekreatsion migratsiyaning ichki zo‘riqish, ruhiy charchoq va emotsional yetishmovchilikni yumshatish, shuningdek, psixologik resurslarni qayta tiklash vositasi sifatida faollashishi mumkinligini ko‘rsatdi. Bu holat rekreatsion safar ayrim vaziyatlarda shaxsning mavjud psixologik holatini muvozanatlashtirishga xizmat qiluvchi adaptiv-kompensator faoliyat sifatida namoyon bo‘lishini anglatadi. Ayniqsa, yangi muhit, ijobiy taassurotlar, muloqot va kundalik faoliyatning vaqtincha o‘zgarishi emotsional tiklanish uchun qo‘shimcha psixologik resurslarni shakllantirishi mumkin.

Bostirish va ratsionalizatsiya mexanizmlarining kognitiv-rivojlantiruvchi omillar bilan salbiy bog‘liqligi esa emotsional kechinmalarni ortiqcha nazorat qilish, ularni anglashdan qochish yoki rekreatsion faoliyatni haddan tashqari ratsional asoslash shaxsning yangilik, bilim va yangi tajribaga ochiqligini ma’lum darajada cheklashi mumkinligini ko‘rsatdi. Shu sababli rekreatsion migratsiyaning psixologik rivojlantiruvchi imkoniyatlari nafaqat safarning o‘zi, balki shaxsning emotsional ochiqligi, refleksivligi, ichki motivatsiyasi va yangi tajribani qabul qilishga tayyorligi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shuningdek, ijtimoiy-integrativ va status-prestij omillari bilan ayrim psixologik himoya mexanizmlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqliklarning aniqlanmagani o‘rganilgan xotin-qizlar guruhida rekreatsion migratsiyaning asosiy motivatsion yo‘nalishi tashqi ijtimoiy maqom yoki prestijga intilishdan ko‘ra, ichki emotsional tiklanish, psixologik kompensatsiya va yangi tajribaga bo‘lgan ehtiyoj bilan ko‘proq bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, rekreatsion migratsiyani xotin-qizlar hayotida faqat dam olish yoki geografik harakatlanish shakli sifatida emas, balki emotsional tiklanish, psixologik kompensatsiya, ichki muvozanatni saqlash va shaxsiy resurslarni yangilashga xizmat qiluvchi murakkab psixosotsial mexanizm sifatida baholash maqsadga muvofiq. Mazkur natijalar xotin-qizlarning rekreatsion xulq-atvorini tushuntirishda psixologik himoya mexanizmlari, emotsional holat va kognitiv rivojlanish ehtiyojlarini alohida emas, balki yagona integrativ tizim doirasida ko‘rib chiqish zarurligini asoslaydi. Shu bilan birga, rekreatsion faoliyatni tashkil etishda xotin-qizlarning nafaqat jismoniy hordiq chiqarish, balki emotsional tiklanish, yangi taassurotlar olish, shaxsiy rivojlanish va psixologik resurslarini mustahkamlash ehtiyojlarini ham hisobga olish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dann G.M.S. Anomie, ego-enhancement and tourism // Annals of Tourism Research. - 1977. - Vol. 4, No. 4. - P. 184-194. - DOI: 10.1016/0160-7383(77)90037-8.

2. Crompton J.L. Motivations for pleasure vacation // Annals of Tourism Research. - 1979. - Vol. 6, No. 4. - P. 408-424. - DOI: 10.1016/0160-7383(79)90004-5.

3. Iso-Ahola S.E. Toward a social psychological theory of tourism motivation: A rejoinder // Annals of Tourism Research. - 1982. - Vol. 9, No. 2. - P. 256-262. - DOI: 10.1016/0160-7383(82)90049-4.

4. Pearce P.L., Lee U.I. Developing the Travel Career Approach to Tourist Motivation // Journal of Travel Research. - 2005. - Vol. 43, No. 3. - P. 226-237. - DOI: 10.1177/0047287504272020.

5. Axmedova D.O. O‘zbekistonda xotin-qizlar mehnat migratsiyasining ijtimoiy omillari: sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2023. - 55 b.

6. Axmedova D.O. Migrantlarning yangi sharoitlarga ijtimoiy-psixologik moslashuvining nazariy tahlili // Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila xalqaro ilmiy jurnali. - 2024. - № 3 (12). - B. 68-73.

7. Axmedova D.O. Mehnat migratsiyasi feminizatsiyalashuvi: xotin-qizlar psixologiyasi va ijtimoiy identifikatsiya // Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila xalqaro ilmiy jurnali. - 2025. - № 1. - B. 19-25. - DOI: 10.65185/mojgo.vi.163.

8. Abdusamatov K. U. The Impact of Family Celebrations on Stress, Emotional Well-Being, and Human Happiness // Maktabgacha va maktab ta’limi. - 2025. - Vol. 3, No. 5. - P. 14–24. - DOI: 10.5281/zenodo.15615941.

9. Abdusamatov K. U., Babajanova D. I., Egamberdiev D. A. [et al.] Challenges Faced by Migrant Students in Education: A Comprehensive Analysis of Legal, Psychological, and Economic Barriers // Qubahan Academic Journal. - 2025. - Vol. 4, No. 4. - DOI: 10.48161/qaj.v4n4a1209.

10. Madjidova D. A., Abdusamatov K. U., Khajiyeva M. [et al.] Interpersonal Relationships in Migrant Worker Families: An Integrated Psychological, Legal, and Pedagogical Model // Qubahan Academic Journal. - 2026. - Vol. 6, No. 2. - P. 58–74. - DOI: 10.48161/qaj.v6n2a2365.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694